

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLI YO'NALISHLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika ta'lim
yo'nalishi 2-kurs talabasi, Xoliyorova Madina Ro'zi qizi*

Annotatsiya: maqolada inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi rivojlanishi, inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi huquqiy – me'yoriy asoslari, ushbu sohada maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlar va inklyuziv ta'limning O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va istiqbollari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.

Abstract: the article talks about the development of inclusive education in Uzbekistan, the legal and normative foundations of inclusive education in Uzbekistan, the reforms carried out in schools and preschool educational institutions in this field, and the development and prospects of inclusive education in Uzbekistan.

Key words: Inclusive education, disabled children, healthy children, equal rights, opportunity, limitation, specialist, teacher, law, development.

Kirish: Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni

sogʻligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi taʼlimini anglatadi. Inklyuziv taʼlimning mazmun mohiyati toʻgʻrisidagi bilim va maʼlumotlar hali jamiyatda yetarli emas. Inklyuziv taʼlim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida taʼlim tarbiya olishlarini taʼminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv taʼlim olish jarayoni bir-biriga oʻxshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega boʻlgan odamlar maxsus bilimga muhtoj boʻlmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va koʻnikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv taʼlim alohida ehtiyojli bolalar bilan sogʻlom bolalar uchun teng taʼlim olish imkoniyatini yaratadi.

UNICEF inklyuziv taʼlimni Oʻzbekiston taʼlim tizimiga kiritish masalalari bilan shugʻullanadi. Inklyuziv taʼlim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qatʼi nazar, ularning barchasiga sifatli taʼlim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega boʻlishlari uchun oilada yashashlari va oʻz tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv taʼlim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda taʼlim olishi, oʻzlashtirishda qiynalayotgan boʻlsa, oʻqish va yozishga oʻrganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qoʻygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam koʻrsatilishini kafolatlaydi. Respublikamizda 2020 yil sentyabr oyida yangi tahrirdagi „Taʼlim toʻgʻrisida“ gi qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, Oʻzbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv taʼlim tamoyillariga muvofiqligi boʻyicha tahlili oʻtkazdi. Qonunning 20- moddadasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar uchun taʼlim tashkilotlarida inklyuziv taʼlimni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni toʻlaqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim tarbiya

berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ4860-son qarori bilan tasdiqlangan “2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi”da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi: - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror bilan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi: - inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish; - o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va

boshqarish choratadbirlari. Shuningdek ushbu qaror bilan quyidagi me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi: - Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom; - Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom; - Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom. Ushbu qonunosti xujjatlarida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi, rehabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy me'yorlar belgilab qo'yildi. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Nogironlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta'lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta'lim muassasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta'limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o'zgara boshladi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-xunarga yo'naltirish, jamiyatga uyg'unlashtirish masalalari davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki O'zbekistonda taraqqiyotning besh tamoyilidan birikuchli ijtimoiy siyosat maqsadli yo'lga qo'yilganligi bois, aholining ko'makka muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash huquqiy jihatdan kafolatlangan. Jahon ta'limi amaliyotida ham ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini

hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKOning ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lim olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr.O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasin Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarori.